Биография

Baxtiyor Mengliyev



Mengliyev Baxtiyor Rajabovich 1965-yil 20-noyabrda Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida tug‘ilgan. Mengliyev Baxtiyor Rajabovich 1990-yilda Termiz davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakultetini bitirib, shu yildan Termiz davlat universitetida o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi sifatida faoliyatini boshlagan. 1991-1994-yillarda Buxoro davlat universiteti aspiranturasida tahsil olgan. 1994-1996-yillarda Qarshi davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi; 1996-1998-yillarda Qarshi davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri sifatida faoliyat yuritgan. 1998-2001-yillarda Buxoro davlat universitetida doktorantura o‘tagan. 2001-2005-yillarda Qarshi davlat universiteti Tarix va o‘zbek filologiyasi fakulteti dekani; 2005-2008-yillarda Qarshi davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri; 2008-2014-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori; 2014-2015-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri; 2015-2016-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori; 2016-2017-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakul teti dekani sifatida faoliyat olib borgan. 2017-2020 yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori sifatida faoliyat olib borgan. 2020- yildan hozirga qadar Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

2003-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutidagi ixtisoslashgan kengashda “Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 2005-yilda professor unvonini olgan.

B.Mengliyev 2017-yildan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti universiteti qoshidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish kengashi a’zosi, 2018- yildan Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30.05.2018.Fil.70.01 raqamli Ilmiy kengash a’zosi.

2020-2023-yillarga mo`ljallangan AM-FZ-201908172 raqamli “O`zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha ishtirokchisi.

Асарлари:

2015

Graduonimik munosabatlar metodologiyasi, Xalqaro ilmiy konferensiya.
Ona tili ta’limi: uzluksiz ta’lim bosqichlarida chalkashliklarga uchramayaptimi?!, “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. Toshkent.
“Konsept-tushuncha-so‘z” zanjiri haqida, “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. Toshkent.

2016

Davlat tili haqidagi qonun va adabiy til me’yorlari., “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. Toshkent 5-son
*Hiylagar*mi yo *hiylakor*? “O‘zbek tili va adabiyoti”. Toshkent 6-son
Yuksalish metodologiyasi haqida o‘ylar, “Jahon adabiyoti” jurnali, Toshkent.

2017

Dialektika qonunlarining tilni substansial-pragmatik tadqiq qilishdagi metodologik ahamiyati haqida, O‘zMU xabarlari. Toshkent № 5

2018

Hozirgi o‘zbek tili., Toshkent, “Tafakkur bo‘stoni”

2019

Ona tili., Toshkent, “CHo‘lpon”(hammualliflikda).

2020

Hozirgi o‘zbek tili., Toshkent.
Ona tili. 10-sinf. (hammualliflikda), “O‘Qituvchi” Nashriyot-Matbaa Ijodiy Uyi Toshkent.

Copyright © 2022
All Rights Reserved.